

O'ZBEK SHE'RIYATIGA QADIM XALQONA OHANGLARNI QAYTARISHGA URUNGAN ISTE'DODLI ADIB...

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10223114>

Fayzullayeva Asilabonu

Termiz davlat universiteti akademik litseyi 104-guruh o'quvchisi

O'zbekiston xalq shoiri , o'zining sermahsul ijodlari bilan o'zbek she'riyatiga qadimiy xalqona ohanglarni qaytarishga urungan serqirra ijodkor bu To'ra Sulaymondur. U 1934 -yilning 15-fevralida Jizzax viloyatining Baxmal tumanidagi Aldashmon qishlog'ida dunyoga kelgan.SHoirning bolaligi ham qama-qamalar avjiga chiqib,xalq dushmanlari va ularning dumlarini fosh qilish jarayonlari vaqtlariga to'g'ri kelgan.SHoirning otasini ham mushtimzo'rsifatida qamoqqa oladilar.SHoir To'ra Sulaymon oddiygina qishloq maktabida o'qiydi,o'qishni bitirgach esa yillar moboynda bolalarga turli fanlardan dars berib o'qituvchilik qiladi.U Toshkent davlat unversitetining o'zbek filologiyasi fakultetini tugatgan.Bo'lajak shoir ham o'qiydi, ham ishlaydi.Guliston tumanidagi maktablarda ona tili va adabiyot fanlaridan bolalarga saboq beradi, „ Sirdaryo haqiqati“ gazetalarida xodim, bundan tashqari O'zbekiston yozuvchilar uyishmasining Sirdaryo viloyati bo'limida 1972-1977-yillarda mas'ul kotib, 1977-1981-yillarda esa adabiy maslahatchi bo'lib ishlagan.

SHoirning ilk she'rlar to'plami „Istar ko'ngil“ nomi bilan 1962 yilda nashr etilgan.SHoirning birin -ketin „Men qayga borar bo'lsam“, „Jahongashta“, „Hamqishloqlarim“, „Intizor“, „ Sirdaryo qo'shiqlari“, „Iltijo“, „Alhazar“, „ To'yboshi“, „ Sizni eslayman“, „Qorako'zginam“, „ Gulshan“, „ Sarvinoz“, „ Xarsang“, „ Jahonnoma“, „ Mamlakatning tayanch nuqtasi“kabi kitoblari ham nashr etilgan.Uning ko'plab she'rlari qo'shiq qilib aytilgan.To'ra Sulaymon faqatgina she'riy janrda ijod qilish bilan cheklanib qolmasdan boshqa janrlarda ham qalam tebratgan ijodkordir.SHoirning sof lirik she'rlari, qasida va faxriyalaridan tashqari,xalq yo'lida bitilgan , o'z davridagi dolzarb masalalarga bag'ishlangan,voqelikni baxshilarning nazari bilan ko'rib, o'xshatma yoki nazira shaklida yozilgan asarlari xalqchilligi bilan ajralib turadi.To'ra Sulaymonning asarlari faqat ifoda tarsi yoki ohangi bilangina emas ,tasvirlashdagi samimiyat , o'xshatishlarning o'ziga xosligi bilan ham xalqchil. SHoirga 1999-yilda „ O'zekiston xalq shoiri “ degan yuksak unvon berildi. SHoirning yurakni jiz ettiradigan she'rlari juda ham ko'p.SHunday she'rlaridan biri munis va mo'tabar onalarimiz

uchun bitilgan „ Tavallo“ she’ridir.Bu she’rni o’qir ekansiz bevosita o’z onangizni o’ylaysiz.Sababi barchamizning onamiz shoir o’z she’rida tariflaganidek mehribon, har qanday vaziyatda ham o’zidan avval farzandini o’laydigan ayollardir.

„Tavallo“

Nelardandir ko’ngil bo’lib g’ash ,

Xam egilib, bu egilas bosh,

Ko’zlarimda qalqib tursa yosh,

Bu holimga berolmay bardosh,

Bir mushtipar Onam yig’laydir ,

Qolganlari yolg’on yig’laydir.

Bu she’rning birinchi misrasida shoir nimadandir ko’ngil g’ash bo’lsa, hch qachon egilmagan boshimiz eegilganda ham,ko’zlarda yosh qalqib,bu holiga aslo bardosh berolmaydigan vaqtlarda ham,boshqalar yolg’on yig’lar,ammo bizning qiynalayotgan holimizda mushtipar onalarimizgina rostdan ham biz uchun yig’laydi.

Qaytar bo’lsam quruqqo’l ovdan,

Qora qozon qolsa qaynovdan,

Ham ayrilib o’lja , ulovdan ,

Qarzga botar bo’lsam birovdan,

Taskin berib Onam yig’laydir,

Qolganlari yolg’on yig’laydir.

Ovga borib hech bir o’ljasiz, quruqqo’l bilan qaytganimizda ham,hayot sinovlari bilan ro’zg’ordagi qora qozonimiz qaynashdan to’xtaganda ham , boshga musibat tushib , yor-u do’stlardan qarz so’rab,qarzga botgan vaqtlarimizda ham,bizga haqiqiy taskin,tasallini,chin qalbidan ko’zyosh to’kkan onalarimiz beroladi.

Birda haqdin ,birda nohaqdin,

Jabr ko’rsam bir betafiqdin,

Ortda tursam qalbi quroqdin,

Qadrim xarob bo’lsa tuproqdin,

Ohlar urib Onam yig’laydir,

Qolganlari yolg’on yig’laydir.

Ba’zan haqlikdan , ba’zan eesa nohaqlikdan,betafiq insonlardan jabr-u azob ko’rsak,g’am yutsak,qalbi aynigan nopok insonlardan ortda turib,qadrimiz xarob , tuproq bilan bir bo’lganda ham,o’zgalar yolg’on yig’lashi mumkun,faqatgina onalarimiz ohlar chekib ich – ichidan yig’laydi.

Og’a-ini o’rtasida gap,

Alhol, kelib chiqsa ixtilof,
Biri izzat, biri mulk talab,
Bu oq sutim, mehrimga xilof,
Deya sho'elik Onam yig'laydir,
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Oilada og'a- inilar o'rtasida gap chiqsa, kelishmovchilik bo'lib, biri izzat talab qilganda, boshqasi esa mulk boylik talab qilganda, bu ishlaringiz bergan oq sutim, beminnat mehrimga xilof deya sho'rlik onamiz yig'laydi, o'zgalar yig'lamasa ham.

Sinalmoqning gali kelganda,
Nogoh mag'lub bo'lsam maydonda,
Nomim qolmas bo'lsa jahonda,
Kim do'st-dushman bilinear onda,
Ahvolimga Onam yig'laydir,
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Olloh bir sinov berib, doimo g'alaba qozongan maydonimizda kutilmagan holda mag'lubiyat alamini tortganimizda, yonimizdagi insonlarni qaysi do'st, qaysi birlari dushmanligibilingan ondaham, bunday ahvolimizga onamizrostdan yig'laydi, qolganlar esa vaqtinchalik ko'ngil uchun.

Ganim bir yon, men bir yon bo'lsam,
U ustuvor men uryon bo'lsam,
Bu ham kamday nogiron bo'lsam,
Yog'och otga yonma-yon bo'lsam,
Oy tutilib, Onam yig'laydir,
Qolganlari yolg'on yig'laydir.

Ganim bir yon bo'lib, bizdan ustun bo'lsa, biz bir yon bo'lsagu undan past bo'lsak, bularning barchasi yetmagandek nogiron, xatto tobut bilan yonma - yon bo'lsak, oy tutilib onamiz yig'laydi, undan o'zgasi yolg'on yig'laydi.

Bo'lsam gumroh, bo'lsa gunohim,
Vujudimga solmasdan vahm,
Qabul aylab tavallo - ohim,
Darig' tutmay mhring, Ilohim,
Yig'latmagin mushfiq Onamni,
Volidayi muhtaramamni.

Qanchalik gunohlarimiz ko'p bo'lsa ham, vujudimizga vahima solmasdan, bizning ohlarimizni qabul qilib, bizdan Ollohim mehrini, marhamatini

darig' tutmasdan,nima bo'lganda hammushfiq Onalarimizni,volidayi muhtaramimizni yig'latmagin deya shoir o'z she'rini yakunlaydi.